



BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-SENTABR**

2022-yilning yanvar-sentabr oyida,
Buxoro viloyatida jami **6 087,7 mlrd.**
soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish
surʼati 2021-yilning yanvar-sentabr
oyiga nisbatan **101,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

17,2

28,6

54,2


Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2022- yil 1- oktabr holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



1 787

Bino va inshootlar
qurish


350

Fuqarolik obyektlarini
qurish

838

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 101,1 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 60,1 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,3 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 11,8 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 136,2 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 28,1 foiz ulushni va 92,6 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o‘tgan yiliga nisbatan, % da
	01.10.2021- y.	01.10.2022- y.	
Buxoro viloyati	2 943	2 975	101,1
Buxoro shahri	977	958	98,1
Kogon shahri	126	133	105,6
tumanlar:			
Olot	77	80	103,9
Buxoro	237	226	95,4
Vobkent	126	128	101,6
G‘ijduvon	198	201	101,5
Kogon	147	148	100,7
Qorako‘l	117	115	98,3
Qorovulbozor	54	59	109,3
Peshko‘	164	184	112,2
Romitan	234	262	112,0
Jondor	248	236	95,2
Shofirkon	238	245	102,9



**2022-yil 1- oktyabr holatiga ko'ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Buxoro sh. (32,1)



Romitan t. (8,8)



Shofirkon t. (8,2)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	6 087,7	1 048,7	3 296,7	1 742,3
Buxoro sh.	1 494,7	151,7	1040,5	302,5
Kogon sh.	418,5	284,2	98,3	36,0
tumanlar:				
Olot	353,1	91,8	115,8	145,5
Buxoro	438,1	33,6	259,1	145,4
Vobkent	172,8	-	82,5	90,3
Gijduvon	492,9	-	253,7	239,2
Kogon	420,8	64,0	228,0	128,8
Qorako'l	254,8	11,7	114,6	128,5
Qorovulbozor	363	245,1	98,8	19,1
Peshko'	388,3	-	250,3	138,0
Romitan	530,7	140,3	227,9	162,5
Jondor	342,0	-	218,9	123,1
Shofirkon	418,0	26,3	308,3	83,4


2022- yilning yanvar-sentabr oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 048,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mos davriga nisbatan 77,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 5,2 % punktg'a kamayib, 17,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari


2022- yil yanvar-sentabr uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 67,9% i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 120,6 %), Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 67,5 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 97,2%) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-sentabr oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,2% i to‘g‘ri kelib, 2021- yil yanvar-sentabr ko‘rsatkichiga nisbatan 3,4 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,5% ni tashkil etgan holda 3 296,7 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



54,2

2022-yil
Yanvar-sentabr

50,8


2021- yil
Yanvar-sentabr



MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Shofirkon tumanida (308,3 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 73,7 %), Buxoro shahrida (1 040,5 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 69,7 %) va Peshko‘ tumanida (250,3 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 64,5%) ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,6 %** ni tashkil etdi yoki **1 742,3 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **111,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **426,7 mlrd. so‘m** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **5 661,0 mlrd. so‘m** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **7,0 %** va **93,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yil
yanvar-sentabr



2022- yil
yanvar-sentabr



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-sentabr oyida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **65,0 %** i yoki **3 954,1 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

12,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **510,1 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **12,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 937,3 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,0 %** ni tashkil etdi.

49,0 %

38,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 506,7 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **38,1 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	6 087,7	101,2	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	1 494,7	104,0	24,6
Kogon sh.	418,5	110,1	6,9
<i>tuman:</i>			
Olot	353,1	107,0	5,8
Buxoro	438,1	104,4	7,2
Vobkent	172,8	118,2	2,8
G'ijduvon	492,9	101,6	8,1
Kogon	420,8	100,6	6,9
Qorako'l	254,8	113,0	4,2
Qorovulbozor	363,0	105,6	6,0
Peshko'	388,3	120,5	6,3
Romitan	530,7	65,5	8,7
Jondor	342,0	106,6	5,6
Shofirkon	418,0	110,9	6,9



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

17,1

2021- yil
Yanvar-sentabr

9,9

42,2

40,7

45,9

44,2

2022- yil
Yanvar-sentabr



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,9 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabrdagi ko'rsatkichga nisbatan 7,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,7 % punktga ko'payib, 45,9 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga ko'payib, 44,2 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,2 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,8 % (0,5 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,6 % punktga kamaydi va 46,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 53,7 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,6 % punktga ko‘paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	6 087,7	3 942,8	1 446,0	698,9
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 494,7	931,1	433,1	130,5
Kogon sh.	418,5	269,6	107,6	41,3
<i>tuman:</i>				
Olot	353,1	206,8	45,8	100,5
Buxoro	438,1	323,0	86,0	29,1
Vobkent	172,8	124,9	38,0	9,9
G'ijduvon	492,9	383,3	81,4	28,2
Kogon	420,8	286,2	104,0	30,6
Qorako'l	254,8	178,9	58,1	17,8
Qorovulbozor	363,0	65,7	94,6	202,7
Peshko'	388,3	281,2	79,0	28,1
Romitan	530,7	383,3	126,5	20,9
Jondor	342,0	245,2	73,0	23,8
Shofirkon	418,0	263,6	118,9	35,5



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari

2022- yil yanvar-sentabr uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	3 061,5	99,6
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	5 229,9	102,6
Kogon sh.	6 653,8	108,2
<i>tuman:</i>		
Olot	3 465,0	105,6
Buxoro	2 530,8	102,6
Vobkent	1 196,8	116,4
G'ijduvon	1 571,2	100,0
Kogon	5 156,5	98,6
Qorako'l	1 515,0	111,5
Qorovulbozor	18 909,6	102,9
Peshko'	3 045,3	118,5
Romitan	3 605,1	64,3
Jondor	1 895,7	104,9
Shofirkon	2 289,4	109,2



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2022- yil yanvar-sentabr uchun**



Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-sentabr oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 18 909,6 ming so'm (yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 102,9 %), undan keyin mos ravishda Kogon shahri – 6 653,8 ming so'm (yoki 108,2 %), Buxoro shahri – 5 229,9 ming so'm (yoki 102,6 %), Kogon tumani— 5 156,5 ming so'm (yoki 98,6 %) va Romitan tumani – 3 605,1 ming so'm (yoki 64,3 %) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (65) 223-81-99